

QASHQADARYO VILOYATIDA MADANIY-MA'RIFIY SOHADAGI YANGILANISHLAR

Nomozov Sohijjon Elmurodovich

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15281918>

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov "Xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olayotgani-bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz"¹ deya ta'kidlagan edi.

Mustaqillik yillarida respublikada madaniy-ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at oliy o'quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o'choilariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshlandi.

Mustaqillik yillarida madaniy hayotda ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Bu avvalo teatr san'ati rivojlanishida yaqqol sezila boshlandi, yangi – yangi teatr dargohlarda qkurib ishga tushurildi. 1994 yilda Qashqadaryo viloyati teatri qoshida qo'g'irchoq guruhleri ochildi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, ko'p o'tmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida 1992 yil 14 yanvarda «Jismoniy tarbiya va sport to'grisi»da qonun qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasi esa O'zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida 1993 yil 18 martda «O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida», 1996 yil 17 yanvarda «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va printsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida» maxsus qarorlar qabul qildi.

Mamlakatda «Sog'lom avlod» Davlat dasturi ishlab chiqildi va keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Ushbu dasturga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi milliy qadriyatlarni tiklashga katta e'tibor berildi. Milliy o'yin va sport turlari bo'yicha har yili musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi.

1992 yildan boshlab har yili Termiz va Shahrisabz shaharlarida milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkaziladigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi terma jamoalari sport turlari bo'yicha bir qancha jahon va Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashmoqdalar.

Mustaqillik yillarida sportning sambo, dzyudo, karate va taekvondo turlari bo'yicha sport musobaqalari o'tkazish imkoniyati yuzaga keddi. Natijada sportning ushbu turlariga qiziquvchilar soni yildan-yilga kengayib bordi, shuningdek, viloyat sportchilarining ham xalqaro sport maydonlariga chiqib, o'z maqorat va kuchlarini namoyish qilish imkoniyatlari

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" T. Ma'naviyat 2008 y. 3-b.

paydo bo'ldi. Ana shunday sportchilardan biri Sarokina Irina bo'lib, u sportning dzyudo va o'zbek kurashi bo'yicha sport ustasi, sambo kurashi bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Sarokina Irina 2003 yil may oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida, 2003 yil 24 avgustda Toshkentda o'tkazilgan Osiyo chempionatida, 2003 yil oktyabr oyida Rossiyaning Krasnoyarsk shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida sambo kurashi bo'yicha faxrli o'rinlarni egalladi. Viloyat sportchilari safiga sportning turli sohalari bo'yicha umidli yoshlarning kelib qo'shilishi quvonarli holdir. Ana shunday umidli sportchilardan Choriev Davlat, Rustamov Bobomurod, O'taev To'raboy, G'anieva Dilnoza, Botirov Abdujabbor kabi yoshlarning nomlarini misol qilib keltirib o'tish mumkin.

Bundan tashqari 1999 yil 22 oktyabrda Prezident kubogi uchun kurashning 2-xalqaro turniri Termiz shahrida o'tkazildi. Professor J.Toshpo'latovning O'zbek kurashining nazariy va amaliy jihatlarini ochib berishga bag'ishlab bitilgan «O'zbek kurashi» risolasi kurash bilan qiziquvchilar uchun ajoyib sovg'a bo'ldi. Istiqloq yillarida viloyatda ko'plab sport insho-otlari ham qurib foydalanishga topshirildi. 1992 yilda qurilgan sport-sog'lomlashtirish cho'milish havzasi, 1996 yilda yarim ochiq holatda qurilgan Termiz tennis korti, qayta ta'mirlangan «Alpomish» o'yingohi, 1998 yil noyabrda ishga tushgan usti yopiq tennis kortlari yana shunday sport inshootlari jumlasidan sanaladi¹.

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganlaridek, “Xalqimizning ma'naviy poydevori-bo'lajak davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va juda mustahkam”, ma'naviy poydevorimiz esa yetarlidir. Har qaysi jamiyat kelajagini ko'zlab yashaydi va uning poydevorini mustahkam qurishga harakat qiladi. Biz istiqloq sharofati bilan ko'p qadriyatlarni, iymonimizni, milliy g'ururimizni, ozodlikni chinakamiga aylandi. Endigi vazifa ota-bobolarimizning poymol etilgan orzu-umidlari xalqqa, avlodlarimizga butun dunyo bilan teppa-teng bo'ylashadaigan buyuk O'zbekistonni meros qilib qoldirmoqdir.

1994 yilda tuman 14 ta madaniy-ma'rifiy binolar foydalanishga topshirildi. Bitta yozgi klub qurib bitkazildi. Beshkent istirohat bo'qini atrofini o'rash va obodonlashtirish uchun 95 ming so'mlik ishlar bajarildi. Beshkent shahri hamda qishloqlarda azaldan meros bo'lib qolgan obidalarni ta'mirlash va ularni obodonlashtirish ishlari jadallik bilan olib borildi.

Teatr sahnalarida yangi zamonaviy mavzudagi asarlar namoyish etila boshlandi. Uzoq yillardan buyon taqiqlab kelingan Amir Temur mavzusiga e'tibor kuchayganligi ham istiqloqning buyuk ne'mati. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida quyildi.

1995 yilda tuman madaniyat xodimlari xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirish sohasida izlandilar. Tuman madaniyat huzuridagi 3 ta madaniyat uyi, 3 ta avtoklub, 2 ta xalq ansambli, 12 ta qishloq fuqarolar yig'ini huzuridagi klublar, bitta markaziy kutubxon va 33 ta qishloq filial kutubxonalarining jamoalari mehnatkashlariga madaniy xizmat ko'rsatish uchun xizmat qildilar. Tuman madaniyat uyi qoshidagi “Cho'l chamani”, “Nasaf” xo'jaligidagi “Momogul”, O'zbekiston mustaqilligi xo'jaligi hududida joylashgan “Yoshlik” dastalari jamoalari xo'jaliklar dala shiyponlari, chorvachilik fermalarida bo'lib keng dasturda kontsertlar namoyish qilishdi.

Qadimiy va boy ma'naviyatimizni tiklashga ko'maklashish, xalqimizning xayotiy an'analarini targ'ib qilish, qishloqlardagi madaniyat shaxobchalariga ishiga raqbarlikni ko'chaytirish madaniyat xodimlarining oldida turgan muhim vazifalaridan biridir.

¹ To'rayev B. Surxondaryo tarixi. Termez DU.

Madaniy-ma'rifiy va davlat inshootlarini qurish, qishloqlarni obodonlashtirish yuzasidan, qishloq aholisiga 21 ta savdo do'koni, 14 ta maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchasi faoliyat ko'rsatdi. Shuningdek, "Istiqbol" xo'jaligida 1 million banka tayyorlaydigan konserva sexi, 25 o'rinli choyxona, "A.Ikromov" xo'jaligida 400 o'rinli klub, agrofirma 300 o'rinli klub, "Namuna" xo'jaligida avtobekat va 2 ta maktab binolari qad rostladi.

Sog'lom tanda soq aql rivoj topadi. Tumanda jismoniy tarbiya va sportning taraqqiyotiga alohida e'tibor berildi. Jumladan, 1995 yilda tumanda 83 ta boshlanqich jismoniy tarbiya jamoalari mavjud bo'lib, ularda 35 mingga yaqin kishi sport bilan shuquillandi. Mamlakatda futbolni rivojlantirishga doir qabul qilingan qarorlardan so'ng, bu sohaning ommaviyligi yanada ortdi, futbol maydonlari ishqibozlar va sportchilar bilan gavjumlashib bordi. Sa'y-harakatlar natijasida Beshkent paxta tozalash qissadorlik jamiyatining "Paxtachi" futbol jamoasi Respublika futbol chempionatining II-guruq qashqadaryo mintaqasida qatnashishga muvaffaq bo'ldi.

1996 yil qishloq joylarida ta'lim, madaniyat va sport, sog'liqni saqlash ob'ektlarini qurish, gazlashtirish, suv va elektr ta'minoti, telefonlashtirish, aloqa xizmatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi.

Turmush madaniyatini yuksaltirishning ajralmas qismi bu jismoniy tarbiya va sportdir. Shu sababdan Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan bu sohaga keng e'tibor berildi. Shu jumladan, "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi tuman tayanch punkti 1996 yilning aprel oyidan boshlab to'la faoliyat ko'rsatib, ko'pgina ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Joriy yilning may oyida "7-Roqat" bolalar bog'chasida "Sog'lom avlod-nurli kelajak" seminar kengashi, iyun oyida Beshkent o'yingoqida "Sog'lomjon-polvonjon" ko'rik tanlovi, Yaxshi Omonov nomli jamoa shirkat xo'jaligida "Yosh onalar" ko'rik tanlovi o'tkazildi. Navro'z va 8 mart Xalqaro xotin-qizlar bayram arafasida 30 kishiga tayanch punkti tomonidan bayram sovg'alari topshirildi. 1 sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va san'atga e'tiborni kuchaytirish davr talabidir. Shunday ekan, ma'naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlarni, aholining axloqiy holatini, yosh avlodni tarbiyalash davrning asosiy ustuvor vazifasi bo'lib qoladi.

1997 yilda tuman aholisiga madaniy, maishiy savdo va pullik xizmat ko'rsatish birmuncha yaxshilandi. Qurilish va obodonlashtirish sohasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Milliy urf-odat va an'analarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, ma'naviyatimizni yuksaltirish yo'lida ijobiy siljishlarga erishildi. Tumanda 1997 yilda sportni rivojlantirish va sport o'yinlarini tashkil etish borasida birmuncha ishlar qilindi. Viloyat futbol musobaqalarida tumanning "Paxtachi" jamoasi faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Bundan tashqari tumanda madaniyat sohasida ijobiy ishlar amalga oshirildi, bayram tadbirlarni istirohat bog'ida o'tkazilishi odat tusiga aylandi. Joriy yil tumanda 50 o'rinli umumiy ovqatlanish binosi, 2 ta maishiy xizmat shaxobchasi qurib foydalanishga topshirildi.

Huddi shunday Qashqadaryo viloyatida ham 33 ta gazeta, shu jumladan, 2 ta viloyat gazetasi Qashshqadaryo, shahar Nasaf, 13 tuman gazetalari, 16 atrmoq, 1 ta xususiy gazeta, shuningdek, nasaf яшнщыш jurnali nashr etiladi.

2002 yil iyun oyida Kitob tumanida folklor jamoalarining Respublika ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi. Anjumanda Qarshi tumanining "Hilola" folklor jamoasi qolib bo'lib, 2003 yil mayda Boysunda o'tkazilgan "Boysun bahori" Xalqaro festivalda ishtirok etdi. Folklor-etnografik

dastalar unutilib ketgan qo'shiqlar, raqslar, milliy liboslarni qayta tiklab xalq ommasiga olib chiqishda juda katta xizmat qildi. Bu folklor-etnografik jamoalarining barchasi mustaqillik yillarida tashkil etilgan. Viloyatdagi 8 ta folklor-etnografik ansamblning faqat bittasi qarshi shaqrida faoliyat olib bordi. Birgina 1996 yil viloyatda 4 ta folklor-etnografik ansambl tuzildi.

2003 yil aprelda Dehqonobod tumanida Qodir baxshi Rahimov xotirasiga bag'ishlab baxshi shoirlarning viloyat ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi. Ko'rik-tanlovda O'zbekiston xalq baxshilari Shomurod baxshi Tog'aev, Qahhor baxshi Rahimov, Musurmon baxshi Keldiyorovlar faol qatnashdilar.

2003 yil 25 aprelda Dehqonobod tumani baxshi shoirlar viloyat ko'rik-tanlovi hamda madaniyat xodimlarining bir kunlik seminari bo'lib o'tdi. Ko'rik tanlovda dehqonobodlik Abduqahhor baxshi, Abdumurod baxshi, Bahrom baxshilar g'olib deb topilib, Termiz shahrida o'tkazilgan baxshi shoirlar va oqinlar Xalqaro ko'rik festivalida va Boysun bahori festivalida ishtirok etdilar.

2003 yil 6 mayda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist T. Murodov xotira kechasi va maqom jamoalari hamda katta ashulachilar ijrochilarining viloyat ko'rik-tanlovi Jeynov jamoa xo'jaligida bo'lib o'tdi. Tanlovda Qarshi tumani "Cho'l chamani" ashula va raqs xalq ansambli va Shahrisabz madaniyat saroyi qoshidagi bolalar maqomchilar ansambli I-o'rinni, G'uzor tuman "Xushruy" ashula va raqs xalq ansambli II-o'rinni, Mirishkor tumani "Go'zal" ashula va raqs ansambli III-o'rinni egalladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" T. Ma'naviyat 2008 y. 3-b.
2. To'rayev B. Surxondaryo tarixi. Termez DU.
3. Asilbek, Khojayorov. "History of Sufism in Nasaf Oasis." *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599) 1.6 (2023): 15-19.
4. Ходжаёров, Асилбек Отабек угли. "СОМОНИЙЛАР ДАВРИДА НАСАФ ШАХРИНИНГ ИЖТИМОЙИ, ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҲАЁТИ." ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 6.1 (2023).
5. Хўжаёров, Асилбек Отабек ўғли. "ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ АЛЛОМАЛАРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 21. 2022.
6. Хўжаёров, Асилбек. "ЎРТА АСРЛАРДА НАСАФ ВОҲАСИ ИЛМИЙ-АДАБИЙ ҲАЁТИ." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 2.7 (2023): 41-43.
7. Бўриев, Очил, Шерзод Искандаров, and Асилбек Хўжаёров. "Абу Райҳон Берунийнинг "Ҳиндистон" асари ноёб этнографик манба сифатида." *Academic research in educational sciences* 3 (2022): 399-411.
8. Khojayorov, A. (2023). The scientific-literary environment of the Nasaf oasis in the middle ages. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 885-888.
9. Khojayorov, A. (2024). *JURISPRUDENCE OF MUHAMMAD BAZDAWI (IX-XII CENTURIES)*. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (February 23 2024; Amsterdam, Netherlands), 188-191.

10. Хўжаёров, А. О. (2024). МИРЗО УЛУҒБЕКНИНГ АСТРОНОМИЯ ИЛМИ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 332-336.
11. Бўриев, О., & Хўжаёров, А. О. (2024). ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ РЕНЕССАНСИ-УЙҒОНИШ ДАВРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 115-123.

